PHARMALEX
REGULATORY AFFAIRS · UZBEKISTAN

«PHARMALEX» xususiy korxonasi
O‘zbekiston, 100000, Toshkent,
Olmazor tumani, Yangi Olmazor ko‘chasi, 7a/31-uy
(+998) 94 050 66 88
info@pharmalex.uz | www.pharmalex.uz

Dori preparatini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun CTD hujjatlari ro‘yxati

Umumiy tartibda

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-noyabrdagi 738-son qarori

CTD bandlari quyida tartib bilan keltirilgan.

1-modul Umumiy va ma’muriy hujjatlar

1.1	Nizomga 2-ilovadagi shakl bo‘yicha ariza; vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi ishonchnoma.
1.2	Belgilangan yig‘im to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat.
1.3	Ro‘yxatdan o‘tkazilganlik guvohnomasi va (yoki) JSST shaklidagi farmatsevtika mahsuloti sertifikati (CPP).
1.4	Preparatning umumiy tavsifi: qo‘llanish sohasi, boshqa davlatlardagi muomalasi, muomalaning to‘xtatilgani va nojo‘ya ta’sirlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar.
1.5	Preparat ishlab chiqarishda ishlatiladigan, hayvonlardan olinadigan moddalarda prionlar mavjudligiga oid ma’lumotlar.
1.6	Birlamchi, ikkilamchi va oraliq qadoqlar markirovkasi; oraliq qadoq, yorliq va stiker maketlari.
1.7	Iste’mol qadog‘i, yorliq va stikerning rangli maketlari.
1.8	Preparatning umumiy tavsifi (SmPC), tibbiyotda qo‘llash yo‘riqnomasi va ichki varaqa loyihalari. Jenerik va biosimilyarlar uchun - original (referent) preparatning amaldagi hujjatlariga muvofiqlik bo‘yicha taqqoslash jadvali.
1.9	Sifatga doir hujjatlar: substansiyaning CEP sertifikati nusxasi; substansiya master-fayli egasining Markaz so‘roviga ko‘ra yopiq qismini taqdim etishga rozilik xati; preparat uchun korxona farmakopeya maqolasi (KFM) loyihasi va tushuntirish xati.
1.10	Ishlab chiqarish hujjatlari: O‘zbekiston milliy GMP sertifikati; xorijiy ishlab chiqaruvchi uchun - GMP inspeksiyasi natijalariga doir hujjatlar, sertifikat va so‘nggi inspeksiya hisobotining to‘liq nusxasi, shu jumladan kamchiliklar, CAPA, qayta ko‘rib chiqish natijalari va yakuniy xulosa; dori vositalarini ishlab chiqarish litsenziyalari.
1.11	Texnologiyalar transferiga doir hujjatlar: tomonlarning sifatni ta’minlash bo‘yicha kelishuvi, transfer dasturi, texnologiya egasining amalga oshirilgan transfer to‘g‘risidagi hisoboti.
1.12	Ro‘yxatdan o‘tkazilgan preparatni mahalliy farmatsevtika tashkiloti quvvatlarida texnologiyani o‘zgartirmasdan ishlab chiqarish to‘g‘risidagi shartnoma.
1.13	Preparat tarkibida genetik modifikatsiyalangan organizmlar mavjudligi yoki preparat ulardan olinganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar.
1.14	O‘zbekistondagi farmakonazorat tizimi hujjatlari: farmakonazorat tizimining master-fayli (PSMF); mas’ul shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlar; xavflarni boshqarish rejasi (RMP); nazarda tutilgan hollarda - xavfsizlik yuzasidan davriy hisobot.
1.15	Foydalaniladigan intellektual mulk obyektlari - tovar belgilari va sanoat namunalariga bo‘lgan huquqlarni tasdiqlovchi muhofaza hujjati (guvohnoma, patent va ilovalar) yoxud ulardan foydalanish to‘g‘risidagi shartnoma.

«PHARMALEX» xususiy korxonasi
O‘zbekiston, 100000, Toshkent,
Olmazor tumani, Yangi Olmazor ko‘chasi, 7a/31-uy
(+998) 94 050 66 88
info@pharmalex.uz | www.pharmalex.uz

2-modul Ro‘yxatdan o‘tkazish dosyesining qisqacha mazmuni

2.1	**2-5-modullar mundarijasi.**
2.2	**Umumiy texnik hujjatga (CTD) kirish.**
2.3	**Sifat bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlar.**
2.3.S	**Dori substansiyasi.**
2.3.S.1	Umumiy ma’lumotlar.
2.3.S.2	Ishlab chiqarish.
2.3.S.3	Struktura va boshqa xususiyatlarni tasdiqlash.
2.3.S.4	Substansiya nazorati.
2.3.S.5	Standart namunalar yoki materiallar.
2.3.S.6	Qadoqlash va tiqinlash tizimi.
2.3.S.7	Turg‘unlik.
2.3.P	**Tayyor dori preparati.**
2.3.P.1	Tavsif va tarkib.
2.3.P.2	Farmatsevtik ishlanma.
2.3.P.3	Ishlab chiqarish.
2.3.P.4	Yordamchi moddalar nazorati.
2.3.P.5	Tayyor preparat nazorati.
2.3.P.6	Standart namunalar yoki materiallar.
2.3.P.7	Qadoqlash va tiqinlash tizimi.
2.3.P.8	Turg‘unlik.
2.3.A	**Ilovalar.**
2.3.A.1	Binolar va uskunalar.
2.3.A.2	Yot agentlar xavfsizligini baholash.
2.3.A.3	Yordamchi moddalar.
2.3.R	**Mintaqaviy ma’lumotlar.**
2.4	**Klinik oldi ma’lumotlari sharhi.**
2.5	**Klinik ma’lumotlar sharhi.**
2.6	**Klinik oldi tadqiqotlarining qisqacha mazmuni - yozma va jadvalli materiallar.**
2.7	**Klinik tadqiqotlarning qisqacha mazmuni - yozma va jadvalli materiallar.**

3-modul Sifat

3.1	**3-modul mundarijasi.**
3.2	**Asosiy ma’lumotlar.**
3.2.S	**Dori substansiyasi.**
3.2.S.1	Umumiy ma’lumotlar.
3.2.S.1.1	Nomlanishi.

«PHARMALEX» xususiy korxonasi
O‘zbekiston, 100000, Toshkent,
Olmazor tumani, Yangi Olmazor ko‘chasi, 7a/31-uy
(+998) 94 050 66 88
info@pharmalex.uz | www.pharmalex.uz

3.2.S.1.2	Strukturasi.
3.2.S.1.3	Umumiy xossalari.
3.2.S.2	Ishlab chiqarish.
3.2.S.2.1	Ishlab chiqaruvchi.
3.2.S.2.2	Ishlab chiqarish jarayoni va uning nazorati tavsifi.
3.2.S.2.3	Boshlang‘ich materiallar nazorati.
3.2.S.2.4	Kritik bosqichlar va oraliq mahsulotlar nazorati.
3.2.S.2.5	Jarayon validatsiyasi va (yoki) uni baholash.
3.2.S.2.6	Ishlab chiqarish jarayonini ishlab chiqish.
3.2.S.3	Substansiyani tavsiflash.
3.2.S.3.1	Struktura va boshqa xususiyatlarni tasdiqlash.
3.2.S.3.2	Aralashmalar.
3.2.S.4	Substansiya nazorati.
3.2.S.4.1	Spetsifikatsiya.
3.2.S.4.2	Analitik usullar.
3.2.S.4.3	Analitik usullar validatsiyasi.
3.2.S.4.4	Seriyalar tahlili natijalari.
3.2.S.4.5	Spetsifikatsiyani asoslash.
3.2.S.5	Standart namunalar yoki materiallar.
3.2.S.6	Qadoqlash va tiqinlash tizimi.
3.2.S.7	Turg‘unlik.
3.2.S.7.1	Turg‘unlik bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlar va xulosalar.
3.2.S.7.2	Keyingi turg‘unlik tadqiqotlari protokoli va majburiyatlar.
3.2.S.7.3	Turg‘unlik ma’lumotlari.
3.2.P	**Tayyor dori preparati.**
3.2.P.1	Preparatning tavsifi va tarkibi.
3.2.P.2	Farmatsevtik ishlanma.
3.2.P.2.1	Preparat tarkibiga kiruvchi moddalar.
3.2.P.2.1.1	Dori substansiyasi.
3.2.P.2.1.2	Yordamchi moddalar.
3.2.P.2.2	Tayyor dori preparati.
3.2.P.2.2.1	Dori shaklini ishlab chiqish.
3.2.P.2.2.2	Ishlab chiqarishdagi ortiqcha miqdorlar.
3.2.P.2.2.3	Fizik-kimyoviy va biologik xossalar.
3.2.P.2.3	Ishlab chiqarish jarayonini ishlab chiqish.
3.2.P.2.4	Qadoqlash va tiqinlash tizimi.
3.2.P.2.5	Mikrobiologik xususiyatlar.
3.2.P.2.6	Mutanosiblik.

«PHARMALEX» xususiy korxonasi
O‘zbekiston, 100000, Toshkent,
Olmazor tumani, Yangi Olmazor ko‘chasi, 7a/31-uy
(+998) 94 050 66 88
info@pharmalex.uz | www.pharmalex.uz

3.2.P.3	Ishlab chiqarish.
3.2.P.3.1	Ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqaruvchilar.
3.2.P.3.2	Seriya tarkibi - ishlab chiqarish retsepturasi.
3.2.P.3.3	Ishlab chiqarish jarayoni va jarayon nazorati tavsifi.
3.2.P.3.4	Kritik bosqichlar va oraliq mahsulotlar nazorati.
3.2.P.3.5	Jarayon validatsiyasi va (yoki) uni baholash.
3.2.P.4	Yordamchi moddalar nazorati.
3.2.P.4.1	Spetsifikatsiyalar.
3.2.P.4.2	Analitik usullar.
3.2.P.4.3	Analitik usullar validatsiyasi.
3.2.P.4.4	Spetsifikatsiyalarni asoslash.
3.2.P.4.5	Odam yoki hayvonlardan olingan yordamchi moddalar.
3.2.P.4.6	Yangi yordamchi moddalar.
3.2.P.5	Tayyor preparat nazorati.
3.2.P.5.1	Spetsifikatsiyalar.
3.2.P.5.2	Analitik usullar.
3.2.P.5.3	Analitik usullar validatsiyasi.
3.2.P.5.4	Seriyalar tahlili natijalari.
3.2.P.5.5	Aralashmalar tavsifi.
3.2.P.5.6	Spetsifikatsiyalarni asoslash.
3.2.P.6	Standart namunalar yoki materiallar.
3.2.P.7	Qadoqlash va tiqinlash tizimi.
3.2.P.8	Turg‘unlik.
3.2.P.8.1	Turg‘unlik bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlar va xulosalar.
3.2.P.8.2	Keyingi turg‘unlik tadqiqotlari protokoli va majburiyatlar.
3.2.P.8.3	Turg‘unlik ma’lumotlari.
3.2.A	**Ilovalar.**
3.2.A.1	Ishlab chiqarish binolari va uskunalari.
3.2.A.2	Yot agentlar xavfsizligini baholash.
3.2.A.3	Yordamchi moddalar.
3.2.R	**Mintaqaviy ma’lumotlar.**
3.3	**Adabiyot manbalari.**

4-modul Klinik oldi tadqiqotlari

4.1	**4-modul mundarijasi.**
4.2	**Tadqiqotlar to‘g‘risidagi hisobotlar.**
4.2.1	Farmakologiya.
4.2.1.1	Birlamchi farmakodinamika.

«PHARMALEX» xususiy korxonasi
O‘zbekiston, 100000, Toshkent,
Olmazor tumani, Yangi Olmazor ko‘chasi, 7a/31-uy
(+998) 94 050 66 88
info@pharmalex.uz | www.pharmalex.uz

4.2.1.2	Ikkilamchi farmakodinamika.
4.2.1.3	Farmakologik xavfsizlik.
4.2.1.4	Farmakodinamik o‘zaro ta’sirlar.
4.2.2	Farmakokinetika.
4.2.2.1	Analitik usullar va validatsiya hisobotlari - alohida hisobotlar.
4.2.2.2	So‘rilish.
4.2.2.3	Taqsimlanish.
4.2.2.4	Metabolizm.
4.2.2.5	Chiqarilish.
4.2.2.6	Klinik oldi farmakokinetik o‘zaro ta’sirlar.
4.2.2.7	Boshqa farmakokinetik tadqiqotlar.
4.2.3	Toksikologiya.
4.2.3.1	Bir martalik doza toksikligi.
4.2.3.2	Takroriy dozalar toksikligi, shu jumladan toksikokinetik baholash.
4.2.3.3	In vitro va in vivo genotoksiklik, shu jumladan toksikokinetik baholash.
4.2.3.4	Kanserogenlik - qisqa, o‘rta va uzoq muddatli tadqiqotlar.
4.2.3.5	Reproduktiv va ontogenetik toksiklik: fertillik, erta embrional va embriofetal rivojlanish, prenatal va postnatal rivojlanish, voyaga yetmagan hayvonlardagi tadqiqotlar.
4.2.3.6	Mahalliy o‘zlashtira olish.
4.2.3.7	Boshqa toksikologik tadqiqotlar: antigenlik, immunotoksiklik, ta’sir mexanizmi, qaramlik, metabolitlar, aralashmalar va boshqalar.
4.3	**Foydalanilgan adabiyot manbalari ro‘yxati yoki nusxalari.**

5-modul Klinik tadqiqotlar

5.1	**5-modul mundarijasi.**
5.2	**Barcha klinik tadqiqotlarning jadvalli ro‘yxati.**
5.3	**Klinik tadqiqotlar to‘g‘risidagi hisobotlar.**
5.3.1	Biofarmatsevtik tadqiqotlar to‘g‘risidagi hisobotlar.
5.3.2	Odam biomateriallari bilan o‘tkazilgan, farmakokinetika uchun ahamiyatli tadqiqotlar hisobotlari.
5.3.3	Odamdagi farmakokinetik tadqiqotlar hisobotlari.
5.3.4	Odamdagi farmakodinamik tadqiqotlar hisobotlari.
5.3.5	Samaradorlik va xavfsizlik tadqiqotlari hisobotlari.
5.3.6	Ro‘yxatdan o‘tkazilgandan keyingi qo‘llash tajribasi to‘g‘risidagi hisobotlar.
5.3.7	Individual qayd etish kartalari va bemorlarning alohida ro‘yxatlari.
5.4	**Adabiyot manbalari.**

«PHARMALEX» xususiy korxonasi
O‘zbekiston, 100000, Toshkent,
Olmazor tumani, Yangi Olmazor ko‘chasi, 7a/31-uy
(+998) 94 050 66 88
info@pharmalex.uz | www.pharmalex.uz

Izohlar

1. Qo‘llanish doirasi va topshirish. Ro‘yxat xorijiy ishlab chiqaruvchining tayyor preparatini birlamchi ro‘yxatdan o‘tkazish uchun mo‘ljallangan. Nizomga 2-ilova bo‘yicha ariza va 3-ilova bo‘yicha ICH CTD shaklidagi, ariza beruvchining elektron imzosi bilan tasdiqlangan elektron dosye taqdim etiladi. Hujjatlarning tatbiq etilishi preparat turi va ro‘yxatdan o‘tkazish asosiga bog‘liq. Hujayra texnologiyasi asosidagi preparatlar uchun ushbu ro‘yxatda batafsil yoritilmagan maxsus istisnolar amal qiladi.

2. Hujjatlar tili. Xorijiy ariza beruvchi 2-5-modullar hamda 1.5, 1.9, 1.11, 1.13 va 1.14-bandlardagi hujjatlarni rus yoki ingliz tilida taqdim etishga haqli. 1.4-banddagi umumiy tavsif hamda 1.8-banddagi yo‘riqnoma va ichki varaqa loyihalari o‘zbek tilida taqdim etiladi; boshqa tillardagi nusxalar qo‘shimcha ravishda berilishi mumkin.

3. Legallashtirish. Nizomning 14-bandiga muvofiq 1.3 va 1.10-bandlardagi xorijiy rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yilgan yoki ular konsullik tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi shart. Faqat notarial tasdiqlangan nusxa ushbu umumiy talabning o‘rnini bosmaydi.

4. Ro‘yxatdan o‘tkazilganlik hujjatlari. CPPda preparat ishlab chiqaruvchi mamlakatda ro‘yxatdan o‘tkazilmagani ko‘rsatilsa, boshqa mamlakatdagi ro‘yxatdan o‘tkazilganlik guvohnomasi notarial tasdiqlangan yoki apostil qo‘yilgan shaklda qo‘shimcha ravishda taqdim etiladi; bunda 14-bandning legallashtirishga doir umumiy talabi hisobga olinadi.

5. Muayyan shartlarda talab qilinadigan hujjatlar. 1.1-banddagi ishonchnoma vakil orqali topshirilganda kerak; 1.5-banddagi ma’lumotlar foydalaniladigan hayvonlardan olingan moddalarga taalluqli. 1.11 hujjatlari texnologiyalar transferida, 1.12 hujjati esa unda ko‘rsatilgan mahalliy tashkilot quvvatlarida texnologiyani o‘zgartirmasdan ishlab chiqarish sxemasida taqdim etiladi. CEP va 1.15 hujjatlari mavjud bo‘lsa beriladi. Qadoqning ayrim elementlari va boshqa ma’lumotlar preparat xususiyatlari hamda ishlab chiqarish sxemasiga qarab kiritiladi.

6. Umumiy tavsif va yo‘riqnoma. Jenerik va biosimilyar loyihalari original (referent) preparatning amaldagi hujjatlariga mos bo‘lishi kerak; taqqoslash jadvali ilova qilinadi. Ishlab chiqaruvchi, yaroqlilik muddati, yordamchi moddalar tarkibi, biokiraolishlik yoki farmakokinetik ko‘rsatkichlardagi farqlarga yo‘l qo‘yiladi.

7. GMP va litsenziyalar. 1.10-banddagi ishlab chiqarish hujjatlari substansiya ishlab chiqarish bosqichidan tashqari barcha bosqichlardagi maydonchalarni qamrab oladi. Xorijiy ishlab chiqaruvchi uchun tegishli mamlakat vakolatli organi yoki WLA / ML4 maqomidagi boshqa vakolatli organ o‘tkazgan GMP inspeksiyasi natijalari taqdim etiladi. Sertifikat bilan birga so‘nggi inspeksiya hisobotining to‘liq nusxasi - kamchiliklar, CAPA, qayta ko‘rib chiqish natijalari va yakuniy xulosa bilan - ilova qilinadi. Litsenziyalar maydonchalar joylashgan mamlakatlar organlari tomonidan beriladi.

8. Farmakonazorat. PSMF va RMP milliy GVP standarti bo‘yicha tayyorlanadi. O‘zbekistondagi mas’ul shaxs oliy tibbiy yoki farmatsevtik ma’lumotga hamda sertifikat bilan tasdiqlangan farmakonazorat malakasiga ega bo‘lishi kerak. Davriy hisobot 1.14-bandda guvohnoma muddatini uzaytirish va o‘zgartirish kiritish uchun bevosita nazarda tutilgan. Diplom, sertifikat, aloqa ma’lumotlari va tayinlash hujjati mas’ul shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi; CV va o‘rinbosar hujjatlari ushbu bandda alohida majburiy hujjatlar sifatida sanalmagan.

9. Substansiya ma’lumotlari. Kombinatsiyalangan preparatda ma’lumotlar har bir ta’sir etuvchi substansiya bo‘yicha, bir nechta ishlab chiqaruvchi mavjud bo‘lsa - har biri bo‘yicha shakllantiriladi. CEP taqdim etilganda 3.2.S hujjatlarini topshirmaslikka yo‘l qo‘yiladi; CEPning haqiqiyligi EDQM bazasidan tekshiriladi. Sertifikat tegishli substansiya va ishlab chiqaruvchiga taalluqli bo‘lishi kerak.

10. 2-5-modullar hajmi. Original preparat uchun tatbiq etiladigan klinik oldi va klinik ma’lumotlar taqdim etiladi. Jenerik uchun 3-ilovaga izohda 1-3-modullar va referent preparatga nisbatan biokiraolishlik hamda bioekvivalentlik hisobotlari nazarda tutilgan; BCS I va III uchun bioveyverga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu maxsus qoida biosimilyarlarga tatbiq etilmaydi. Sharh va qisqacha ma’lumotlar hajmi dosye asosiga ko‘ra belgilanadi. Bandning CTD tuzilmasida mavjudligi har bir tadqiqotni qaytadan o‘tkazish kerakligini anglatmaydi.

«PHARMALEX» xususiy korxonasi
O‘zbekiston, 100000, Toshkent,
Olmazor tumani, Yangi Olmazor ko‘chasi, 7a/31-uy
(+998) 94 050 66 88
info@pharmalex.uz | www.pharmalex.uz

11. Mavjud bo‘lmagan va tatbiq etilmaydigan ma’lumotlar. Preparat xususiyatlarini hisobga olgan holda ayrim hujjatlar yoki ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa, 3-ilovaga izohga muvofiq rasmiy asoslantirilgan tushuntirish taqdim etishga yo‘l qo‘yiladi. Bu talabdan avtomatik ozod etilish hisoblanmaydi. Spetsifikatsiyalar, usullar, seriyalar tahlili va turg‘unlik natijalarining arizada ko‘rsatilgan dozalar, maydonchalar va qadoqlarga mosligi tekshiriladi.

12. Umumiy tartibda milliy GMP. 1.10-bandda milliy sertifikat mavjud bo‘lsa taqdim etilishi nazarda tutilgan, biroq 11-band uni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishdan oldin taqdim etishni talab qiladi. Xorijiy ishlab chiqaruvchi inspeksiyasi dosyeni ko‘rib chiqish bilan parallel o‘tkazilishi mumkin; sertifikat ro‘yxatdan o‘tkazishdan oldin taqdim etilishi shart. Shartnoma asosida ishlab chiqarish va transferda 10-band ham hisobga olinadi.

13. Markirovka va master-fayl. 1.6-banddagi markirovka o‘zbek tilida taqdim etiladi; boshqa tillar qo‘shimcha ravishda berilishi mumkin. Tan olish uchun belgilangan substansiyalarning amaldagi master-fayllariga doir istisno umumiy tartibga tatbiq etilmaydi. Egasining Markaz so‘roviga ko‘ra yopiq qismni taqdim etishga roziligi 1.9-band bo‘yicha kiritiladi.

14. CTD tuzilmasidan tashqari namunalar. 14-band bo‘yicha KFM loyihasiga muvofiq uch martalik sinovlar uchun yetarli miqdorda bir sanoat seriyasidan olingan, qoldiq yaroqlilik muddati kamida 50% bo‘lgan namunalar sifat sertifikatlari bilan taqdim etiladi; JSST prekvalifikatsiyasidan o‘tgan preparatlar uchun ushbu talabdan istisno nazarda tutilgan. Qadoqlar soni sinovlar sarfiga ko‘ra belgilanadi; barcha preparatlar uchun yagona son belgilanmagan.

15. Laboratoriya materiallari. 14-bandning «d» kichik bandiga ko‘ra ta’sir etuvchi moddalar, yot va yondosh aralashmalarning farmakopeya yoki referent standart namunalari, nazorat materiallari; zarur bo‘lsa - maxsus reaktivlar, test-shtammlar, xromatografik kolonkalar, ishlab chiqaruvchining maxsus sarf materiallari va reagentlari taqdim etiladi. Ularga sifatni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi. Bir nechta doza uchun har biri bo‘yicha ehtiyoj va CoA tekshiriladi.

16. Klinik bazalar. Ro‘yxatdan o‘tkazish doirasida klinik tadqiqotlar o‘tkazilsa, ariza beruvchi klinik bazalarga GCP va qonunchilikka muvofiq zarur hujjatlar va namunalarni taqdim etadi. Bu har bir preparat uchun yangi mahalliy tadqiqotlar o‘tkazish bo‘yicha umumiy majburiyatni anglatmaydi.

Normativ manba

VMQning 24.11.2025-yildagi 738-son qaroriga 1-ilova, Nizomning 3, 10, 11 va 14-bandlari; Nizomga 2 va 3-ilovalar hamda izohlar. LexUZ: https://lex.uz/docs/7853907. Matn 20.10.2026 holatiga tekshirilgan; mavjud tahrirda 03.07.2026 gacha kiritilgan o‘zgartirishlar hisobga olingan.